

AHMAD A'ZAM

ÖZIM BILAN ÖZIM

Turkum novella

1. ODAMNING ISMI

Nega faqat bitta ismga qaramman: Ahmad, deb chaqirsalar, labbay, deb chopib boraman.

Men shu Ahmad degan ismga boʻgʻliqman, sen oʻzi kimsan, deb sorasalar, Ahmadman, deyman.

Qaerda neki ish qilsam, yaxshisi ham, yomoni ham ismimga oʻtadi: Ahmad undoq qilibdi, Ahmad bundoq qilibdi. Ba'zi paytlari esa odamlar mening kimligimni emas, faqat Ahmad degan ismnigina biladigandek, ularga oʻzim emas, faqat ismim kerakdek, ismim menga tegishli hamma yaxshiyu yomon tomonlarni egallab, oʻzimga hech narsa qolmayotgandek tuyuladi. Mening esa doʻstlarim kabi Solih, Olim, Xurshid, Murod boʻlgim keladi, kimsan, deb sorashsa, Solihman, Olimman, Xurshidman, Murodman - Doʻstman deb aytishni istayman.

Nahotki, umrim bitta ismga boʻgʻlanib oʻtib ketadi, deb ezilaman. Doim men ismimga qaramman, ammo ismim birgina menga nisba emas, u mendan boshqa odamlarni ham oʻziga qaratgan. Bu ism mendan oldin ham bor edi, mendan keyin ham boʻlaveradi, odamlar mening bor-yoʻqligimga qaramay, bolalariga] Ahmad deb ism qoyaveradilar. ¹

Bir kuni doʻppimni mundoq boshdan olib qoʻyib, oʻylay boshladim: validai muhtarama zaminda yana qancha Ahmad bor? Oʻzbeklar bilan birga tojik, qozoq, turkman, ozarbayjon, qirgʻiz, qoraqalpoq, uygʻur, tatar, boshqird, avar, dargʻin, qalmaq kabi mamlakatimizdagi boshqa millatlarda ham Ahmad degan qardoshlar bisyor ekan. Axir, Aqmat, Axmet, Amet, Amit, Amadjon deganlarning bari bitta — Ahmad-da!

Xayolan mamlakatlar sarhadlaridan oshib, oʻylay boshlasam, er yuzining hamma mavzellariga Ahmad deganlar sochilib ketgan ekan.

Dunyoda shuncha kop Ahmad borligidan konglim ancha taskin topdi.

Birdaniga ularni korgim kelib qoldi. Yoʻq, mamlakatma-mamlakat kezib sayohatga chiqmadim. Shu turgan joyimdan Asqartoʻgʻning tepasiga chiqib, jumla-jahonning hamma mavzellariga tovushimni etkazib: “Hoy Ahmad!”—deb bir na'ra qilgan edim, Ahmad deganning bari, labbay, deb chopib keldi.

¹ Bu gapni men havodan olayotganim yoʻq; umumjahon aholisining bulturgi royxatida on million sakkiz yuz on mingu uch yuz etmsh bitta Ahmad (10.812,371) bor ekan. 6 yil ichida yana necha mingga kopaygandir — Ahmad (avtor).

Oh-ho, shuncha kop ahmadlar yigildiki, Asqartoʻgning tegrasiga odam sigmay ketdi: qolimni peshanamga qoyib, harchand tikilaman, ahmadlarning adoʻgi koʻrinmaydi! Oq tanli, sariq tanli, qora tanli, qizil tanli, bir xillarining uzoq yolda chopib kelganidan, aft-angorini chang bosib, qanaqa tanli ekanini ham bilib boʻlmaydi.

Odam ismining ohanrabosi shunchalar zor ekanmi, ozodlik deb hibsga tushgan nechov-nechov ahmadlar chaqiriʻimni eshitgach, kishanlarni sindirib, turmalarni yiqib, yoldagi mamlakatlarning chegaralarini buzib etib kelibdilar; oshini oshab, yoshini yashab, oyoqdan madori ketgan kop qarriqurri ahmadlari uzrlarini etkazishni navqiron ahmadlarga qaytaqayta tayinlab qolibdilar; mishiʻgini eplolmaydigan jujuq, churvaqa ahmadchalar oʻz millati tilida: “Manam boyaman” (masalan, forschasi: “Manam me-yavam”), deb yigʻlab ergashgan ekan, ularni katta ahmadlar: “U yoqdan senlarga shunaqa hushtak olib kelamizki, puflasanglar, otlaring chalinadi”, deb avrabdilar; eronu Iroqda ahmadlar bir-biri bilan urushib yotgan ekan, chaqiriʻim etib borgach, qurollarini tashlab, birga, unisi yiqilsa — bunisi turʻgizib, bunisi yiqilsa — unisi turʻgizib chopaveribdilar.

Men Surinam degan mamlakatni Afrikada deb yursam, u Amerikada boʻlib, osha tupkaning tagida ham ahmadlardan bor ekan. Urugvay, Paragvay degan mamlakatlardan ham talay ahmadlar keldi. Ahmadlar u yoqlarda nima qilib yuribdi, deb hayron bolsam, ularning ota-bobolari avval Afrikadan Andaluziyaga, u erdan Lotin Amerikasiga uloqib borib, osha erlarda muqim turib qolgan ekan. Kop ahmadlar tirikchilik ʻgamida Evropada ham tentib yurgan ekanlar, shular ham sarmoyadorlarning ishdan boshatib yuborishlaridan qorqmay (u yoqlarda musofirlarga bundan oʻgirroq jazolarni ham tap tortmay qoʻllayverishadi), hamma narsani shu holicha tashlab kelaveribdilar.

Ha-ya, Evropa, Amerika, Afrikada Amadeo, Amadey, Amadu deganlar ham yoʻlga otlanishgan ekan, ahmadlar faqat “Ahmad” ismli odamlarni chaqirdi, deb yoʻldan qaytarishibdi. “Bekor qilibsizlar, ismi ancha uyqash ekan, kelisha boʻlard”, deb afsuslandim.

Lekin kunchiqar mamlakati — yaponiyadan bir yamato degan odam, quloʻgi sal chatoqroq eshitar ekanmi, “Amat-o!”, deb chaqiryapti” deb oylab, kelaveribdi, bunga quvondim.

Bizning ~azirada ham Ahmad degan podachi bir qoʻshnimiz bor edi, qarasam, shu ham yuribdi. “Ho, Ah-mad aka, qishloqning podasini beega qoldirdingizmi?”, deb tashvishlansam, u: “Shu paytda poda koʻzga koʻrinadimi!” — deydi...

Xullas, jumla-jahonning ming tuman, million-million ahmadlari1 bir joyga jam boʻldi.

Kel-e, bu dunyoda mendan ham bir xayrli ish qolsin, deb oyladim-da, adashlarimga qarab: “Bir-birlaring bilan tanishib olinglar”, dedim. Bu gapimni

özimizning mamlakat ahmadlari hamma xorijiy ahmadlarga tarjima qilib berdilar — yalpi ta'limning kuchi shunda bilindi.

Tanishish marosimi, yashirmaslik kerak, bir oz kulgiga ham sabab bo'ldi, chunki qaysi adashim kimga: “Mening ismim — Ahmad”, desa unisi: “Men ham Ahmadman”, deydi, soragan Ahmad: “Hazillashmang”, deb kulib yuboradi.

Turfa millat, turfa tilli, turfa shamoyilli ahmadlar dunyoda shuncha ko'p Ahmad borligini bungacha oylab xam ko'rishmagan ekan, avvaliga ishonmadilar, keyin esa rosa quvondilar. “Shuncha vaqtdan beri bir-birimizdan bexabar yuravergan ekaimiz-da”, deb o'kinganlari ham bo'ldi.

Keyin Ahmadlar bir-birlaridan hol-ahvol sorashga tushdilar; millating nima, hukumatlaring qanaka, maoshing qancha, qaramo'gingda nechta jon bor, ishlab topganing roz'gorga etadimi, etmasa — yordam beraylik, axir begona emas, özimizning Ahmadsan, topganingda qaytararsan...

Bu yo'gi endi oz-ozidan ayon: dushmaninigdan bunaqa hol-ahvol soramaysan, axir.

Hamma ahmadlar do'stlashib ketishdi.

Shundoq ahil adashlarimga qarab turib, ismim Ahmad ekanidan, ahmadlarning ko'pligidan, rosa konglim kotarilib, boshim osmonga etdi. Bundan buyon Ahmad ismimga minba'd do'g tushirmayman, yomonotliga chiqsam, odamlar bolalariga mening ismimni qo'yishni bas qilib, ta'gin ahmadlar kamayib ketmasin, degan niyatni ham konglimga mahkam tugdim.

Keyin ahmadlar ichida bo'lay, dedim-da, Asqarto'gdan tushib, adashlarimga aralashib, oralarida adashib ketdim.

Biz ahmadlar boshqa-boshqa mamlakatlarda yashasak ham, maqsadimiz — tinch, ozod yashash, shundan ismimiz bitta, kelinglar, bundan song bordi-keldi qilaylik, o'gir kunimizda bir-birimizga elkadosh bo'laylik, yaxshi kunlarda quvonchimizni baham koraylik, deb gapni bir joyga qoydik.

Har bir Ahmad o'zi yashayotgan mamlakatda, agar u ozod bo'lsa, ozodligini yana ham mustahkamlash uchun, ozod bo'lmasa, ozodlik uchun kurashsin: zamon notinch, har bir Ahmad oz elida tinchlikni oylasin, boshqa ismdagi odamlarni ham ahillikka undasin, deb bir qarorga keldnk.

Ahmad degan-nom — dunyodagi jami ahmadlar lashkarining bayro'gi, bu bayroq har qanday mashaqqatli damlarda ham baland kotarilib tursnn, degan taklif bir ovozdan qabul qilindi.

Ana shunday yakdil, yaktan ruh bilan xoshlashdik. Bir talay ahmadlar, ta'sirchanroq ekanmi, xayrlashayotganda yig'lab yuborib, boshqa ahmadlarning ham konglini buzdi. Mayli, nima bo'пти, mehr millat, chegara bilmas ekan, shunday zor yig'inda yig'lamasak, qaysiqachon yig'lab yuruvdik, bunaqa ko'zyosh yaxshilikka, deb namli ko'zlarimizni hech birimiz bekitmadik...

Men endi Solih, Olim, Xurshid, Murodnigina emas, Shavkatni ham, Yoldoshni ham, erkinni ham, Usmonni ham, yasharni ham, Mirzoni ham, Alisherni ham, xullas, barcha dost tanish-bilishlarimni menga oxshab Asqartoʻgʻning tepasiga chiqinglar-da, “Hoy Solih” yoki “Hoy Olim!..” deb chaqirishga undamoqchiman.

Kimningki ismi Odam boʻlsa, shu ishga chorlamoqchiman. Bu endi amalga oshmaydigan havoyi orzu emas, haqiqat: agar Odam konglining eng baland choʻqqisidan turib, koʻkragini uluʻgʻ niyatlarga toʻoldirib: “HOY ODAM!”, deb jumla jahonning hamma ovloq burchaklarigacha tovushini etkazib na'ra qilsa, ming-ming tuman, million-million odam labbay, deb chopib keladilar.

Agar dunyodagi hamma odam ODAMLIK degan bitta bayroq ostida toplansa, tasavvur qilasizmi, HOY ODAM!..

2. JIM OTIRGAN ODAM

Uyimdagi hamma narsa nimagadir quloq tutgan: goyo hozir birovi tuyqusdan tilga kiradiyu boshqalari uni tinglaydigandek. Balki, ular derazadan tushayotgan oynning nurini kopdan buyon bahamjihat tinglashayotgandir. Balki, shu jimlikning ozi ularning sozlashuv tilidir, bu tilni men bilmasman. Har qalay, oylab, yillab kunboyi bir uyda baqamti qoladigan narsalarning bir-biri bilan muloqotga kirishmasligi mumkin emas. Balki narsalar oʻz-oʻzi-cha bizning etti uxlab tushimizga kirmagan oylarini turar...

Derazadan osmonga qarayman: yulduzlar chechak otgan. Chechaklar bir-birlariga gul changini uzatib yashaydilar — shunday tillashadilar: yulduzlar ham bir-biriga nur yoʻllab gurunglashmaydimi? Yoʻqsa, nega buncha jimillaydilar? Uyga tolaman. Men ham goyo jim otiribman. Konglimdagi sozlar osmondagi yulduzlarcha kop. Ular bir joyda tek turmay, toplanib-tarqalib yuribdi. Toplanganlarida konglim yorishib ketadi, tarqalganda — xira tortadi.

Sozlar bezovta tillashayotir — meni tillashayotir.

Nima deb oylaysiz, odamning konglidagi sozlar luʻgat kitobiga toplan bosilgan olik harflar yiʻgindisimi? Ioq, ular — tirik, tirik narsalar jim turolmaydi.

Mana, shu tirik sozlar konglimda gangir-gungur muloqot qilayotir — konglim yorishib-xira tortib turibdi.

— ey, sen,— deyman ozimga-ozim.

— Ha, men,— deb javob qilaman ozim.

— Mening kim?

— Men-da. Ismimni bilasan.

— Ismingni zmas, kimligingni sorayapman,

— Kim bolardim, odamman-da.

— Odamligingni emas, kimligingni sorayapman.

Odamlikdan boshqa yana kim ham bolarдим, deb oylayman. Agar bu savolni oʻzimdаn-oʻzim emas, birov soraganda, nima deb javob qilardim. Bu savolni birov berganda, javobimni kutib otirmay, yoʻq, sen odam emassan, deyishi ham mumkin. Axir, odam boʻlish osonmi!

— Kimligingni bilmay turib qanday yashayapsan?— deyman yana oʻzimga-oʻzim.

— Qanday yashayapman?—deb yana ajablanaman oʻzim.— Xosh, qanday yashayapman? Halol yashayapman, oʻzganing haqini emayman, birovga yomonlik qilmayman, sidqidildan ishlayman, nonimni beminnat topaman. Bundan ortiq yana qanday yashashim kerak?

— Bu ish qumursqaning ham qoʻlidan keladi,— deyman oʻzimga-oʻzim.— Odam yashash uchun oʻzining kimligini bilishi kerak.

yana oʻzim oylayman, juda koʻp kitob oʻqiysan-da, oshna, kallangga kimqaydagi kitobiy savollar keladi, deyman-u, lekin shu yashashimdan boshqa yana qanday yashashim kerak ekan, deb boshim qotadi. Agar bundan ham ortiqroʻgi boʻlsa, shu kungacha yashaganimni nima qilaman, axir, umrimning shuncha qismini bekor otkazgan boʻlaman-ku! e-e, biz yashayotgan ekanmiz, umrni faromush otkazibmiz, deb ochirib tashlab, yashashni boshqattan boshlay olmayman-ku. Otilgan oʻq yana qaytib miltiqdan chiqadimi?

Yana oʻzim oylayman: shunday yashayverganim yaxshi emasmi, kimdan kamligim bor?..

— Ha-a,—deb kinoya qilaman oʻzimga-oʻzim,—kimligingni bilishdan qorqyapsanmi?

— Yoʻg-e,— deyman oʻzim gashlanib.— Nega qorqar ekanman. Odam oʻzining kimligini bilishdan ham qorqadimi?

— Qorqyapsan,— deyman oʻzimga-oʻzim, xuddi kimligimni bilaman-u, jorttaga aytmayotgandek.— Ancha donosan, kimligingni donoliging bilan yashirasan.

Nazarimda, koʻnglimga boshqa bir odam kirib olib, meni mayna qilayotgandek, fahmim etmaydigan savollar berib, meni atay dovdiratayotgandek.

Qiziq, deb oylayman yana oʻzim, ismim, tilim, millatim, tuʻgilgan joyim, totuvgina oilam boʻlsa, qanday yashayotganim oʻzimga besh qoʻldek ayon, boshqa birov, meni yaxshi bilmaydigan kishi shaxsim haqida har xil xayollarga borishi mumkindir, ammo hozir begona bilan emas, oʻzim bilan oʻzim gaplashayapman-ku, nimani yashirardimu nima manfaat topardim bundan?

- Xop, ana, bilar ekansan, ayt kimligimni, - deyman zarda bilan oʻzim.

- Qani, ayt-chi, Vataningni sevasanmi?

- Albatta, sevaman.

- Xalqingni sevasanmi?

- Albatta, sevaman.

e-ha, gap bu yoqda ekan-ku, deb engil tin olib, burro-burro javob qilaman.

- Xosh,— deyman yana o'zimga-o'zim. - Qani, endi bu savolimga o'ylab javob ber: Vataningni, xalqing-ni qanday sevasan?

- Iya, bu qanaqasi bo'ldi? Sevamai, vassalom! Konglimda Vatanimga, xalqimga bo'lgan ulkan muhabbatni avaylab yuribman.

- Xop, ana endi kimligingga yaqinlashyapmiz, - deyman o'zimga-o'zim.

Ustimdan qanaqadir beshafqat hukm bo'layotgandek yuragim orziqib ketadi.

- Uyingni, oilangni yaxshi korasan-a?

- Ha.

- Shuning uchun tinmay elib-yugurasan. Ishqilib, uyimda kamchilik bo'lmasin, bolalarim boshqalardan kam bo'lmasin, deb qo'lingdan kelganini qilasan. Xotiningga birov ola qarasa, mushtumingni tugasan, bolangni qoshning bolasi ursa, o'tlanib chiqasan, Bironta bezori uyingga tosh otsa, alamingni olmaguncha tinchimaysan. To'g'rimi?

- To'g'ri.

- Nima uchun Vatan, xalqing uchun shunday elib-yugurmaysan.

- ...

- Bularga bo'lgan muhabbatni konglingda avaylab yurishingdan kimga naf? Axir bunaqa befoyda yotgan muhabbatning tirikligi qoladimi? Muhabbat mehrob emaski, unga si'ginib, shu bilan burchingni otab yuraversang. Tirik tuyg'u kurashishi kerak. Kurashmaydigan muhabbat — o'lik muhabbat.

- Vatan degani ham aslida - kurashayotgan muhabbat, ana shu muhabbat birlashtirgan kishilar xalq bo'ladi. Sen, sen uchun ham birov kurashishi kerakmi?

Aslini olganda, o'zim bilan o'zim bunaqa gaplashmasligim kerak edi. Gaplashsam ham avvaldanoq boshqa, o'zimga tushunarliroq mavzudan boshlashim lozim edi. Masalan, o'zimdanoq-o'zim, qani, oshna, shu vaqtgacha nimalarga erishding, deb sorasam, qo'lga kiritgan narsalarimni bir-bir sanab berar edim.

- Xop, xop, endi gapni ko'p cho'zmay, kimligimni aytib qoya qol, - dedim zardam qaynab o'zim.

Shunda faqat savol berayotgan o'zimni emas, savolga tutilayotgan o'zimni ham ko'rdim, ikkovi ham - bitta o'zim, lekin...

- Senmi? - dedim o'zimga-o'zim. - Sen - kongliga ganjinani komma qilib, qaerga ko'ngani esidan chiqib ketgan qashshoqsan. Shu xalqning bir bo'lagi emas, qatorning ichiga kirib olib, qator qayoqqa etaklasa, shu yoqqa o'gadigan, o'zini qator bilan panalab, tirikchnlik tashvishida g'imirsib yurgan jon-gina bir... mayli... odamsan...

Mulzam bo'lib qoldim: o'zimga o'zim shunaqa ayblarni qoyamanmi-a?!

- O'ylayapsanmi? - deb soradim yana o'zimdan-o'zim.
- O'ylayapman, - deb javob berdim o'zim...
- O'yla, o'yla, - dedim o'zimga-o'zim. - Lekin, muhabbat quruq o'y ham emas.
- Tushunyapman, - dedim o'zim.
- Tushunayotgan bolsang, yashay boshlabsan, - deyman yana o'zimga-o'zim. - Mayli, yaxshilab o'ylab ol, faqat qolgan umringni o'y oylash bilan otkazib yuborma. Amalsiz o'y ham — o'lik...

Ana shunaqa, o'zim bilan o'zim gaplashib otiribman.

Uyimdagi hamma narsa bekordan-bekorga shunday turmagandir...

Derazadan oy nuri uyimga bekorga tushmayotgandir...

Osmondagi yulduzlar bekorga jimillamayotgandir...

Konglimdagi sozlarning bezovtaligi bejiz emasdir, axir...

Chetdan qaragan odam mening hozir o'zim bilan o'zim gaplashib, oylarimning beshafqat tovushini eshitib otirganimni bilmaydi. Kozini bir nuqtaga tikib jimgina otirgan odamning konglidan nimalar kechayotganini chetdan qaragan odam eshitmaydi.

Lekin eshitishi kerak. Jim turgan odamning hammasi ham jim turmagan bo'ladi. Odamning o'zi bilan o'zi yolgiz qolgandagi jimlikda boshqalar ham eshitishi juda zarur bo'lgan tirik sozlar tilla-shadi.

Konglim yorishib — xira tortib turibdi: SIZ KIMSIZ?..

3. KOZGUDAN QARAGAN ODAM

Odam har kuni necha martalab kozguga qaraydi: sochini tarash uchun, kiyimining yarashgan-yarashmaganini korish uchun, kopincha esa kozgudagi aksiga anchayin ma'nisiz ko'z tikadi. Kozguga nima uchun tikilgani esida yo'q, boshqa narsalarni oylab turaveradi...

Erkaklar soqol olayotganlarida ham albatta kozguga qaraydilar, hatto jallod ham oz yuziga kozgusiz tig' tekizolmaydi.

Ayollar esa kozgusiz o'zlariga oro berolmaydi lar - ular kozgu yonidagina o'zlarining orolanib borayotganliklariga ishonadilar. Albatta, ular erkaklarning suq bilan termilishiga ham ishonadilar, lekin erkaklarning ko'zida ular kozgudagidek aks etmaydilar — kozgu behayo emas, gap ham otmaydi.

Chiroyli-chiroyli qizlar chiroylaridan o'zlari ham bahra olish uchun kozguga qaraydilar.

Yosh-yosh yigitlar kelishimli, xushbichim qomatlarini kozguga solib, undan qizlarning konglini qidiradilar.

Agar uyga kiraverishda toshoyna turgan bo'lsa, odam otganida ham, qaytganida ham unga bir qur ko'z yugurtiradi.

Kochaga chiqayotgan odam kochadagilarga qanday korinishini oldindan bilib, yuziga shunga mos tus berish uchun ko'zguga qaraydi. Tusini o'zgartirmaslik uchun odam hatto kochada ketayotganda ham do'konlar oynasida lip etgan aksini nazardan qochirmaydi.

Erkagu ayol — odam umri qanday otayotganini ko'zgodan kuzatib yashaydi. Agar oyna kashf etilmay, dunyodagi hamma suvlar loyqa bo'lib, odamning yuzi hech bir narsada aks etmasa, odam o'zining yuzidagi o'zgarishlarni ko'rmas, ildiz otayotgan ajinlarini payqamas, sochining oqi ko'payib borayotganini, qaddining egilayotganini payxas qilmas — yoshi qaytayotganini bilmas edi.

Odamning yoshi qaytgani sayin ko'zguga el bo'lishi shundan.

Odam ko'zguda o'zining hamma a'zosini: sochi, pe-shanasi, qoshlari, burni, lablari, yonoqlari, iyagi, baqbaqasi, boyni, ko'ragini, kiyimlarini; qaddi-bastini, boshmoqlarini ham ko'radi, u yonboshini, bu yonboshini ham ko'zguga soladi.

Qorin qoya boshlagan odam hatto qornini ham ko'zguga ro'para qilib, e, padariga la'nat, halitdan semirib ketyapman, deydi.

Lekin odam ko'zguda o'zini kormaydi. Ko'zguga qaragan odam o'zining hamma joyini ko'rib turadi, lekin - o'zining ko'zlariga to'g'ri boqolmaydi. Bordi-yu, ko'zgodagi ko'zlariga to'qnash kelib qolsa, bildirmay, bilmagandek, goyo bu to'qnashuv tasodifdek, sekin ko'zlarini olib qochadi.

Men bir kuni o'zimni ko'rishga ahd qilib, ko'zgodagi ko'zlarimga to'g'ri tikildim. Tikildimu... shu onda seskanib ketdim: ko'zgodagi ko'zlar meniki emas edi, ularning boqishi otkir, shafqatsiz, senga bir martagina berilgan hayotni buncha abgor qil-ding, deb qattiq qadalib turar edi.

Ko'zgodagi ko'zlar mening ko'zlarimga aks edi. Ular - men yigit yoshiga kirayotganimda hali mana bundoq yashaymiz, deb umidvor qilganimga ishongan, endi esa hayotim hech qandoq emasligini ko'rib turib, meni fosh qilishga payt poylab kelayotgan, hozir shunday paytni qo'lga kiritgan ko'zlar edi.

Ko'zgodagi ko'zlardan ko'zlarimni olib qochdim.

Ko'zgodagi ko'zlardan ko'zlarimni yashirdim.

Faqat... ichimdagi bir istak ularga qara, qara ularga, deb turar edi.

... va bu istak tobora kuchayib borar edi.

Chekinishga yo'l yoqqa oxshaydi. Nimadir qilish kerak!

4. O'ZIGA TERMILIB OTIRGAN ODAM

Tepamda birov otiribdi. Boshimda, yuzini yuzimga yaqin tutib, meiga diqqat bilan tikilib otiribdi.

Kozlari hamdard, xayrxoh— uzoq vaqt meni soʻgʻingan, nihoyat menga etishib, lekin meni uyʻgotishdan ayab otirgan qadrdonimning kozlari.

Yuzim — uyqu bilan yopilgan kitob. Kitobimni oqimay tursin, deb uxlab yotibman.

Oyning nuri deraza pardalaridan sizib otadi, yuzimga gardlarini sepadi, tepamda otirgan birovning kozlarida titraydi.

Oyda yorishgan yuz doim shafqattalab boʻlishini, yumuq kozlarga hech kim ozor berolmasligini bilib, kozlarimni ochmay yotibman.

Birovning shafqatini himoya bilib uxlab yotibman.

Meni qandaydir muloyim vahm bosgan, qandaydir shodlanib seskanaman.

Vahm konglimga huzur bilan yastanib, oy yoruʻgida xira tovlanayotgandek...

Vahmni bemalol silasa ham boʻlar ekan-ku, vahm bilan bemalol tillahsa ham boʻlar ekan-ku, degan oylarni oylayman.

Vahmning oʻgushi iliqqa oxshaydi.

Nega shu paytgacha meni vahima bosardi, deb oylayman yana.

Vahm menga yaxshilik silishga kelgandek.

Vahmga nimalardan qorqishimni, nega yuzimni ochmayotganimni aytib bersammi, deyman. Aytib bersam, qorquvlarning eng kattasini oʻzimga el qilsam, boshqalari meni daf qilishga botinolmas, deb oylayman yana.

Uxlayotgan boʻlsam ham bosh uchimda mening yuzimdan oʻzini oqimoqchi boʻlgan birovni koʻrib yotibman, uning hech qanaqa BIROV emas, OZIM ekanligimni bilib yotibman.

Balki uxlamayotgandirman?., Balki bu tush emasdir?..

Buncha oʻzimga termilaman, menga nima boʻldi ekan?..

5. TANASIDAN KONGLI QOLGAN ODAM

Uning hamma xohish-istaklarini bajarish menga qonun edi.

Uni deb olib-tirilardim.

Har kuni ertalabdan uni parvarishlashga kirishar edim: soqolini olar, tishini tozalar, yuziga xushboʻy atirlar sepib qoyar edim: ustaraning tiʻgi tekkan joyiga zararli narsalar toshmasin, deb ham oylardim-da;

har hafta hammomga tushirar, buʻgʻxonada obdan terlatib, uqalab qoyar edim;

har kuni kamida uch mahal ovqatlantirar, qurbim etganicha unga yoqadigan taomlardan saylar edim; endi chamalab korsam, shu vaqtgacha egan ovqatlari kirq tuyaning belini sindirib, yana ortilmay ham qolar ekan;

topganimcha yaxshi-yaxshi liboslarga orardim, sovuqda qalin, issiqda engil kiyintirar, izğirin yuziga tegmasin, deb qishda pōstinining yoqasini kotarib qoyar, boshini oftob urmasin, deb saratonlarda soya-salqin yōlkalardan etaklar edim;

ozini salgina yomon his qilsa tashvishga tushar, injiqlanaversa, doxtirlarga qaratar, dardini aritadigan dorilardan topib kelardim;

charchasa, dam berardim, kuniga kamida etti soat uxlatardim, sayr qildirardim, yana...

endi men mayda gap odam emasman, uning aytsa boladigan xohishlaridan tashqari, aytish noqulay talay-talay mayllarini ham qondirardimki, hammasini sanayversam minnat qilyapti, deb oylashingiz mumkin.

Gapning londasi, ozimni unga bağishlagan edim.

Bir kuni doimgidek uni papalab ketayotganimda, birdaniga oldimdan tosiq chiqib qoldi.

— Qani, endi men bilan bir sakra, bu tosiqdan oshib o'taylik,— dedim.

U tosiqni korib chekindi, aniq — qorqdi!

— Sakra, axir, seni kelib-kelib tosiqdan chekinasan, deb shuncha parvarish qildimmi,— dedim unga ezilib.

U esa tosiqqa qarab shalvirab qoldi.

Oxiri, bor-e, asli nomard ekansan, senga umrini bağishlagan men — ahmoq, dedim-da, bir sakrab tosiqdan oshib o'tdim.

Tanamning quruq ozi qolaverdi, yolning narigi yoğiga faqat ozim ketaverdim...

6. KONGLINI KÖTARGAN ODAM

Ivirsiq uyimizga kirsak, betartib yotgan narsalar ozimizga joy qoldirmagandek, tor tuyuladi. Shuning uchun vaqt-vaqti bilan uy kotaramiz. Uydagi narsalarni tashqariga olib chiqib, korpa-yostiqlarni oftobga yoyamiz, uyni supurib-sidirib, shamollatib tozalaymiz-da, narsalarni joy-joyiga taxlaymiz: ivirsib yotgan uy keng, bahavo, odam kirsak, bahridili ochiladigan, eng muhimi — izlagan narsangiz topiladigan tartibli bir goshaga aylanadi. Toğrimi?

Men bir kuni shu tarzda konglimni kotarmoqchi boldim. Ivirsib ketgan ekan, zarur payti izlagan tuyğumni topolmayman; bu tuyğū yoqligidan emas, konglimning tartibsizligidan; unda hamma tuyğularim aralashquralash sochilib-bosilib yotgan ekan.

Bir kuni televizorga qarab otirgan oʻglim: “Dada, siz ham otlarni yaxshi korasizmi?”, deb sorab qoldi. Oylamasdan. “Ha, oʻglim”, deb yubordimu uyalib ketdim: konglimdan harchand izlamayin, otlarni yaxshi korishimni topolmayman. Bu tuygʻu bolaligimdan beri bor, konglimda edi, godakligimda xivichni ot qilib chopganman, sal kattarganimdan keyin kopkari bolgan joydan qolmaganman, on sakkiz yoshlarimda otchopardagi poygadan zavqlanib, konglim yumshab ketgan; otlar shu qadar chiroyli chopgan edi. Lekin, mana, bugunga kelib, bu tuygʻuni topolmayapman...

Bir maktabda yozuvchilar bilan uchrashuv boʻldi, menga ham soʻz berishdi. Soʻzni tarixni chuqur organish kerakligidan boshladim. “Tarix — tarixda qolib ketgan otmish emas, u bizning yuragimizda yashaydi, bugun biz yashayotgan kunlar ham avlodlarimiz umrida davom etadi, ota-bobolarimiz hayotini unutib qoysak, kelgusida bizni ham esdan chiqarishadi, izziz oʻchib ketamiz”, dedim. Shunday dedimu yura-gim shuv-v etib ketdi: konglimga nazar solsam, oʻzimning tarixni yaxshi korishim yoʻq! Bir vaqtlar tarixni shunday sevardimki, yotib olib, quloʻgimni erga bossam, tarixdagi otlarning dupurini eshitgandek boʻlar edim. Bu tuygʻu konglimning qay bir burchagida, qanaqadir lash-lush kechinmalar tagida qolib ketgan shekilli, shunday zarur paytda izlab topolmayman. Mulzam boʻlib minbardan tushdim...

Yana bir kuni meni atay yoʻqlab, toʻlib-toshib sinfdosh doʻstim uyga keldi. Darvozani ochishim bilan meni quchoqlab oldi. Men ham uni quchoʻgimga oldimu esankirab turaverdim: yana oʻsha ahvol, sinfdoshimga boʻlgan doʻstligimni topolmayman. Doʻstim, qolida bir dunyo bozorlik, kongli mehrga limmo-lim toʻlib, koʻzi yoshlanib menga boqadi; bechoraning meni koʻrmaganiga on besh yil boʻlibdi, axir! Men esa nima qilishimni bilmayman, nuqul: “ey seni qarayu... Juda quvontirding meni”, deymanu konglimda quvonch yoʻq. “Bekorga kelmagandir, shaharga ishi tushgan, biron iltimosi bor-ov?”, degan xayollarga ham boraman. Lekin, yoʻq, hech qanaqa iltimos-piltimosi yoʻq; ishidan ikki kunga javob tekkan ekan, “Shu-u, jorajonimni bir kormasam, konglimning xusuri bosilmaydiganga oxshaydi”, deb kelaveribdi. Kechasi alla-pallagacha gurunglashib yotdik; uning kongliga hayajon siʻgmaydi, meni uyqu bosadi, men ham unga qoʻshilib joshay deyman, ammo oʻsha joshqin doʻstligimizni qaerga qoʻyganimni topolmayman, bilmayman.

Yana bir kuni shu erda — shahardagi doʻstlarim bilan boʻlgan bir gurunгда gap birinchi muhabbatga kelib taqaldi. Doʻstlarimning mendan boshqa barida bu tuygʻu yoʻqolmagan ekan, gurun qizigandan qizidi, ularning bari oʻsha on olti, on etti, on sakkiz yoshiga bir-bir qaytib chiqishdi. Birinchi muhabbat mening ham esimda ekan-u, ammo tuygʻuning oʻzi yoʻqolib qolibdi. Boʻlmasa, bir qizni ikkinchi sinfdaligimdan tortib to maktabni bitirguncha yaxshi koʻrganman, har kuni, ishonasizmi, har kuni uning otini aytib uxlaganman, uygʻonganimdan keyin ham tilimga kelgan soʻz — uning oti boʻlgan. U qiz menga moyil boʻlganmi, yoʻqmi, bilmayman-u, lekin oʻzim uni juda qattiq yaxshi koʻrganman. Oʻsha shirin azoblarimning hammasini eslayman, lekin konglimda qilt etgan tuygʻu yoʻq. Keyin eslasam, birinchi

sevgimdan sovib, endi nima keragi bor, deb konglimning bir gadoytopmas burchagiga tiqib qoʻygan ekanman, mana, topolmayman.

Bir kuni eski yozuvimizga boʻlgan sevgimni topolmay qoldim. Dostimning oʻgʻli maktabida arabcha ham oʻqir ekan, harflarni aji-buji yozishini koʻrib, gʻayratim josh urib ketdi, unga husnixatning qanaqa boʻlishini koʻrsatib qoʻymoqchi boʻldim. Ammo otimni yozish ham esimdan chiqib ketgan ekan. Yoʻqsa, bir vaqtlar qamishqalamni qiya yonib, Navoiyning “Ashraqt min aksi shamsil...” deb boshlanadigan gʻazallarini qancha qancha koʻchirganman, husnixatim yaxshi chiqqanidan qanchalar quvonganman. endi esa konglimda eski yozuvga mehr tugul, oʻzi ham yoʻqolib qolibdi.

E'tibor bermasangiz, ne-ne tuygʻularingiz yoʻqolib ketaverar ekan, e'tibor bersangiz, nimalarni yoʻqotganingiz kelaverar ekan: avval hafta-on kunda, keyin kunda biron bir tuygʻumni befoyda izlaydigan boʻlib qoldim.

Ana shundan keyin konglimni, xuddi uy kotargandek, saranjom-sarishta qilishga bel boʻgladim. Oʻzi ham konglimda ming xil mayda-chuyda tuygʻular uyulib ketgan ekan, ularning keragini kerakka ajratguncha boʻlarim boʻldi. Ularni shamollatish uchun oftobga yoyganimda koʻpi qurib, uvalanib ketdi.

Lekin ularning tagidan — konglimning tubidan shunaka tuygʻularim topilayotirki!.. Shunchalar badav-lat ekanimni oʻzim bilmay, qashshoq-benavo yuravergan ekanman.

Kongil kotarishim toʻxtagani yoʻq, hali ish kop, lekin xozirdanoq konglimga kirsam, yayrab ketaman — shunaqa sarishta, shunaqa bahavo, shunaka keng...

7. OQIB BORAETGAN ODAM

Al l e g r o

Men bir kuyning tolqinlarida oqib kelyapman kelyapman kelyapman qalqib qalqib ketyapman ketyapman ketlpman bu kuy meni qaysi qaysi qaysi qirgʻoʻgʻiga qachon qachon qachon tashlab ketadi bilmayman bilmayman bilmayman faqat bu kuyni oʻzim chalyapman chalyapman chal...